



## DAVLAT TILI MAQOMIDAGI O'ZBEK TILINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

**Rasulov Rahmatulloh Ahmadjonovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-kurs magistranti

E-mail: [rasulovrahmatulloh793@gmail.com](mailto:rasulovrahmatulloh793@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371460>

Til-inson uchun berilgan buyuk ne'mat, u milliy madaniyatning ham muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat aloqa quroli, balki inson shaxsini fazlu kamolga etkazuvchi, uning xulqi-odobi, insoniy xislat va fazilatlarini uyg'unligini ta'minlovchi ibrat va tarbiya manbai hamdir. Zero, u xalqqa kuch-quvvat, ruhiy barkamollik bag'ishlaydi.

Darvoqe, jamiyat hayoti, inson kechinmalari naqadar rang-barang bo'lsa, til ham shu qadar serjilodir. Til qanchalik serqirra bo'lsa, boyisa, millat ma'naviyati ham shu qadar yuksaladi. O'zining jamiyatdagi o'rnini, vazifasi va asl mohiyati bo'yicha dunyodagi har qanday til-umumiy hodisa sanaladi. Lekin ayni vaqtda jahonda uch ming tildan ortiq til mavjud ekan, ularning har biri betakror va o'xshashi yo'q qoidalar dunyosi hisoblanadi. Chunki har bir til muayyan xalqning, yashash sharoitlari, mentalitetiga mos holda yaratiladi.

Davlat tili-mustaqil davlatimizning muqaddas timsolidir. Til-millatning ko'zgusi, davlatning ramzi hamdir. Darvoqe, dunyoda uch mingga yaqin til mavjud, lekin barcha tillarga ham davlat tili degan sharafli maqom nasib etmagan. Darhaqiqat, milliy qomusimizning ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'ylab uch ming tildan atigi 116 tasi davlat tili maqomiga ega. Demak, o'zbek tilining bu mo'tabar minbardan o'rin olishi, ya'ni davlat tili maqomiga ega bo'lishi - bu bir baxt, qolaversa, mo'jiza!

"Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlikdir" deganlaridek, bir paytlar O'zbekistonda o'zbek tilining qo'llanish doirasi juda toraygan, deyarli taraqqiy etmasdan, o'gay boladek bo'lib qolgan. O'z ona tilida ariza yozish, majlislar o'tkazish, rasmiy idora vakillari bilan muomala qilish qariyb unitilayozgandi. Bu borada shoir Erkin Vohidovning "Ruhimiz ehtiyoji" ("Saodat" jurnali, 1989-yil, 3-son) maqolasida yozilgan ushbu fikrlarga e'tibor bering: "Hozirda (80-yillarning oxiri) vaziyat shundayki, O'zbekistonda o'zbek tilini bilmagan odam bemalol hayot kechirishi mumkin. Uni o'rganishga ehtiyoj yo'q. Lekin rus tilini bilmagan odamga hamma eshiklar berk. Nuroniy onaxon hokim tilni bilmagani uchun nafaqa masalasida ijrokom xodimi bilan muomala qilolmaydi. Uyiga o't tushgan o'zbek o't o'chiruvchiga mahallasi qaerdaligini tushuntirilmaydi, "Tez yordam"ga qo'ng'iroq qilib bolasining dardini anglatib gapirolmaydi". Ushbu jummalarni o'qib vujuding junbushga keladi.

Haqiqatan ham turg'unlik izlari tilda ham ko'ringan. Ko'plab o'zbek (turk) so'zlari hech asossiz siqilgan, atamalar bo'lar-bo'lmasga baynalmilal atamalar bilan almashtirilavergan. Bu hol ona tilimizning qadr-qimmatini tushirgan. Jamoa ana shu turg'unlikka qarshi e'tiroz bildirgan. Va nihoyat, 1989-yilning 21-oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI-chaqiriq XI-sessiyasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu o'zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotida eng yirik voqealardan biri bo'ldi. Mana hozir 35 yil to'ldi. Endilikda biz qanchadan-qancha ulug' bobolarimizning ilmiy meroslarini, ma'naviy meros hisoblanmish hikmat durdonalarini, badiiy asarlarini, tarixiy memuar majmualarini o'z ona tilida sevib mutolaa qilayapmiz. Bu o'zbek tili taraqqiyotida yangi davr boshlanganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda davlatimizning eng muhim hujjatlari shu tilda yozilmoqda. Ona tilimiz



davlatlararo muloqotlarda, dunyoning nufuzli minbarlarida, xalqaro anjumanlarda ham keng qo'llanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarimiz rivojiga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Uning lug'at xazinasini yangi so'z va tushunchalar bilan boyib, xorijiy tillar bilan aloqasi kuchayib bormoqda.

Darhaqiqat, ona tilini sevish ham vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzi. O'z tilini hurmat qilgan xalq o'zligini, o'z g'ururini asrab-avaylagan bo'ladi. Ona tiliga bo'lgan muhabbat har bir so'zning ma'nosini chuqur anglagan holda ishlatish, uni yaxshi bilish, asrab-avaylash kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, biz, ayniqsa, o'zbek tili o'qituvchilari tilimizning beqiyosligini, rang-barangligini, kelgusi avlodga teran etkazishimiz, dars jarayonida ham misol keltirishda oddiylikdan yiroq bo'lib, xalq maqollari, hikmatlari, ibratli so'zlaridan, hadis namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ayni damda yoshlarimiz ongiga milliy g'urur va nafosatni yuksaklarga ko'tarishni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro obro'-e'tiborining yuksalishi uchun ona tilimizni yanada boyitish, uni puxta egallashimizga ham ko'p jihatdan bog'liq ekanligini takror va takror uqtirishimiz zarur deb o'ylayman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. — Toshkent: Fan, 2015.
2. Abdullayeva D. O'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Rasulova G. Matn lingvistikasi asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
4. Vygotskiy L.S. Psixologiya i obuchenie. — Moskva, 1984.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. O'zbek tili fan dasturi. — Toshkent, 2023.